

Methods of using modern pedagogical technologies to increase the effectiveness of music education

Khodjayeva Mavludakhon Latipovna
Andijan State Pedagogical Institute
Faculty of Social and Applied Sciences.
Teacher of the Department
of Fine Arts and Music Education

Annotation

This article analyzes the issues of using modern pedagogical technologies to improve the effectiveness of music education. It also highlights the importance of interactive methods, information and communication technologies, and innovative approaches in the educational process. It is argued that the use of modern pedagogical technologies in music education serves to develop students' creative thinking, musical imagination, and practical skills.

Keywords: music education, pedagogical technology, innovative methods, interactive methods, music education, information technologies.

Musiqqa ta'limini samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslublari

Xodjayeva Mavludaxon Latipovna
Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy
va amaliy fanlar fakulteti. Tasviriy
san'at va musiqqa ta'limi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada musiqqa ta'limining samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion yondashuvlarning o'quv jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Musiqqa ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, musiqiy tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: musiqqa ta'limi, pedagogik texnologiya, innovatsion metodlar, interfaol usullar, musiqiy tarbiya, axborot texnologiyalari.

Bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, musiqqa ta'limida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning musiqqa bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida, ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha fanlar qatori musiqqa fanini o'qitish ham tubdan yangilandi. Barcha fanlar kabi musiqqa ta'limida yangi Davlat Ta'lim Standartlarini joriy etilishi, milliy musiqqa merosimizdan, mumtoz asarlar, maqom, katta ashula, folklor, o'zbek milliy cholg'u sozlarimizdan, o'zbek xalq qo'shiqlari bilan birga Rus va yevropa xalqlari musiqalaridan to'liq foydalanish imkoniyatini berdi. Musiqqa san'atining bu kabi imkoniyatlari, yangi avlodni tarbiyalashda o'ziga hos takrorlanmas manba bo'lib hisoblanadi. SHu bilan birga, hozirgi kunda yangi zamonaviy texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishga, qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. CHunki, pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar o'quvchi talabalarni tez fikrlashga, nutqni o'stirishga o'z ustida ishlashga, izlanishga, oz kuch sarflab, kafolatlangan natijalarga erishishga yordam beradi.. pedagogik texnologiyalarni asosiy negizi,

o'quvchi yoshlarni mustaqil fikrlash, adabiyotlarni ko'proq o'qishga, o'z ustida ishlashga, bir-birlarini fikrlarini hurmat qilishga, har qanday vaziyatda o'zini tuta bilishga o'rgatadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim tarbiya tizimini mazmunini yangilashda asosiy kuch ekanligi ilmiy va amaliy tarzda asoslab berilgan. Pedagogik texnologiyalarni o'ziga hos xususiyatlaridan biri jonkuyarlik, tashabbuskorlik va yuksak madaniyat san'atiga asoslanadi. Pedagogik texnologiya so'zi – san'at va mahorat degan ma'noni anglatadi. Pedagogik texnologiyalar bir necha bosqichlar asosida shakllanadi:

- dars mavzusi o'quvchilar talabiga mos qilib tanlash;
 - o'quvchilarni bilim saviyasini nazorat qilish;
 - o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlar darajasini, o'zlaridan qidirib topishga o'rgatish;
 - dars jarayonida olgan bilimlarini mustaxkamlash;
 - erkin so'zlashga, o'z fikrini bildirishga, darsga tayyorlanib kelishga, jamoa bo'lib ishlab, bir qarorga kelishga o'rgatish;
 - dars jarayonida mavzu bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni yechimini topishga o'rgatish.
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha dars o'tish uchun esa, har bir musiqa o'qituvchisi oldiga quyidagi talablar qo'yilgan:
- o'qituvchi yangi texnologiyalarni musiqa darsida qo'llashi uchun nazariy va amaliy bilimlarni puxta bilishi hamda takomillashtirishi lozim.
 - Musiqiy asarlar yordamida musiqani hayot bilan bog'lashi;
 - O'quvchilarni aqliy va ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatib ularda izlanish va fikrlash qobiliyatini o'stirish;
 - Har bir o'qituvchi "jonli" ijro, tarqatma kartochkalar, komp'yuter, slayd, multimediya, SD-R disklar, magnitofon, magnit tasmalaridan va boshqa texnik vositalardan foydalana bilishi kerak.
 - Musiqa darsi jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga kartochkalarni tarqatib ularni guruhlariga bo'lib o'yin shartlari bilan o'quvchilarni tanishtirishi kerak.

Guruhlar oldilaridagi kartochkalarga qarab, topshiriqlarni bajarishga kirishi lozim. Masalan: birinchi guruh qo'shiq nomini topishga, ikkinchi guruh kompozitorini aniqlashga, uchinchi guruh esa qo'shiqning mazmunini yoritishga harakat qiladilar. O'quvchilar o'qituvchi ijrosidagi qo'shiqni tinglab bo'lganlaridan so'ng esa vazifalarni bajaradilar.

Bunda o'qituvchi o'z oldiga nimalarni o'rgataman va qanday natijaga erishaman degan savolni qo'yadi, o'qituvchi o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarni bermay, balki ularni o'quv materialdagi muammolarni yechishga, izlanishga fikr yuritishga yo'nalish beradi va ularni aqliy va ruhiy tomonlarini rivojlanishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

YAngi pedagogik texnologiyalar, ya'ni interaktiv metodlar quyidagicha bo'rinadi:

1. "Klaster", "Tarmoqlar" metodi:

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishda fikrlash faoliyatini jadallashtiradi. O'quvchilarga biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. Mavzuga taalluqli fikrlarni uzviyligi va ketma-ketligini tarmoqlashlariga o'rgatadi.

2. "Fikrlar hujumi" metodi.

Bu metod Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan. Bunda yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini oshiradi. Har bir guruh ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradi va o'qituvchi rahbarligida guruh ishlariga birgalikda baxo beradilar.

3. "Весы" – "Tarozi" texnologiyasi.

4. Mazkur texnologiya munozarali turli mavzularni o'rganishda qo'l keladi. U tanqidli tafakkur, mantiq ijodni improvizatsiya, fikriy tajribalarni rivojlantirish, o'zlari keltirgan dalillarni yozish va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda qilib ifodalaydilar va o'z fikrlarini himoya qiladilar. Qaysi guruh ishonarli qilib ko'proq dalillar keltirsa, o'sha guruh g'olib deb sanaladi. Bu texnologiya o'quvchilarda o'z bilimiga ishonch va munozara qilish madaniyatini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning musiqiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun musiqa o'qituvchilari o'z faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ishmuhamedov R. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2018.

Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.

Abdullayeva B. Musiqa o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2020.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.